



## **TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING ODOB-AXLOQ QOIDALARI**

Toshkent-2021

Ushbu odob-axloq qoidalari Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy Kengashi tomonidan  
2021 yil 21 aprelda 11-son bayon bilan tasdiqlangan.

Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o'rirlarda – TTA) sog'lom ma'naviy-ma'rifiy muhitni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash yuzasidan ODOB-AXLOQ QOIDALARI O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliv ta'lim tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan qarorlari, Sog'liqni saqlash va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining normativ-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 14 iyunda 746-son bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Idoraviy mansubligi, mulkehilik va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, korxona, muassasa, tashkilot ichki mehnat tartibining namunaviy qoidalari", Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining "Oliy ta'lim muassasasining Odob-axloq qoidalari to'g'risida"gi, "Oliy ta'lim muassasasining namunaviy ichki tartib qoidalari to'g'risida"gi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining 2016 yil 20 yanvardagi 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi barcha boshqaruv apparati, tibbiyot davolash-profilaktika hamda oliv va o'rta maxsus ta'lim muasassalari, tashkilot, korxonalar xodim va talabalarning tibbiy deontologiyasi va madaniyati to'g'risida"gi nizomlari, TTA Ustavi, TTA Ichki tartib qoidalariiga muvofiq hamda umume'tirof etilgan ma'naviy va axloqiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur Odob-axloq qoidalari mazmunida xususan Sog'liqni saqlash vazirligining 2016 yil 20 yanvardagi 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi barcha boshqaruv apparati, tibbiyot davolash-profilaktika hamda oliv va o'rta maxsus ta'lim muasassalari, tashkilot, korxonalar xodim va talabalarning tibbiy deontologiyasi va madaniyati to'g'risida"gi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasasining Odob-axloq qoidalari" nisomlari asos qilib olindi.

Unda umumiy qoidalari, xodim va talabalarning odob-axloqiga oid qoidalari, pedagog xodimlar va talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabatlari, pedagog xodimlarning o'zaro munosabatlari, talabalarning o'zaro munosabatlari, pedagog va boshqa xodimlarning odob-axloqqa oid majburiylari, talabalarning odob-axloqqa oid majburiylari, pedagog va boshqa xodimlar va talabalarga man etiladigan qoidalari, rahbar, pedagog va boshqa xodimlar o'rtasidagi odob-axloqqa oid munosabatlari, rag'batlantirish va chora ko'rish tartibiga oid masalalar yoritib berilgan. Odob-axloq qoidalari universitetning pedagog va boshqa xodimlariga, talabalarga, shuningdek, malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovechilariga mo'ljallangan.



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING ODOB-AXLOQ QOIDALARI

### 1-bob. Umumiy qoidalar

#### 1. Mazkur Odob-axloq qoidalar (keyingi o'rirlarda- Qoidalar) bilan tartibga solinadigan munosabatlar.

Usbu qoidalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsivasi, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 26 martdag'i PQ-5040-sonli qarori, Sog'lijni saqlash vazirligining 2016 yil 20 yanvardagi 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sog'lijni saqlash vazirligi tizimidagi barcha boshqaruvi apparati, tibbiyot davolash-profilaktika hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassassalari, tashkilot, korxonalar xodim va talabalarning tibbiy deontologiyasi va madaniyati to'g'risida"gi nizomi va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlarga muvosiq ishlab chiqilgan bo'lib, Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rirlarda – TTA deb yuritiladi) pedagog va boshqa xodimlari, talabari, klinik ordinatorlari, doktorantlari (keyingi o'rirlarda — xodim, talaba, klinik ordinator va doktorant) kasbiy odob-axloqining tamoyillari, normalari, ta'lim jarayoni va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

#### 2. Qoidalaring maqsad va vazifalari.

##### **Qoidalarning maqsadlari:**

- xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarda umumiy madaniyatni rivojlantirish;
- TTA xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarining zamonaviy imidjini shakllantirish;
- xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarda TTA va uning qadriyatlariga hurmat ruhini shakllantirish;
- TTA odob-axloqi tushunchasini takomillashtirish va TTAda tashqi ko'rinish va xulq-atvorga bo'lgan talablarga oid yagona yondashuvni ishlab chiqishdan iboratdir.

##### **Qoidalarning vazifalari quyidagilardan iborat:**

- huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish, xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlar orasida odob-axloq qoidalari buzish bilan bog'liq bo'lgan nomaqbul xatti-harakat, jumladan, zuravonlik, shafqatsizlik va hayosizlikni targ'ib va tashviq qilish, shuningdek, turli salbiy illatlar va milliy mentalitetimizga yot bo'lgan g'oya va qarashlar, ekstremizm, separatizm, fundamentalizm va "ommaviy madaniyat"ning ta'sir hamda xurujlaridan himoya qilish;
- mazkur nomaqbul xatti-harakatlar sodir etilishining sabab va shart- sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish;



- xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarni yuksak huquqiy ong, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalash;
- xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarni doimo hurmat qilish va himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish va yuksaltirish;
- xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy- axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;
- TTAda sog'lom ijtimoiy-psixologik muxitni shakllantirish va rivojlantirish;
- TTAda xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarida tashqi ko'rinishga oid madaniyatni shakllantirish uchun sharoitlar yaratish;
- TTAning davlat va jamiyat hayotidagi hamda ta'lim tizimidagi nusuzi, obru'e'tiborini asrab-avaylash va yanada oshirish.

### **3. Qoidalarning amal kilish doirasi.**

Ushbu Qoidalalar TTAning barcha xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlariga nisbatan tatbiq etiladi.

#### **2-bob. Qoidalarning printsiplari**

#### **4. TTAda xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlari xulq-atvorining asosiy printsiplari.**

Mazkur Qoidalalar qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklar va qonuniy manfaatlarning ustuvorligi, vatanparvarlik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik, adolat, halollik va holislik, samaradorlik va tejamkorlik printsplariga asoslanadi.

#### **5. Qonuniylik printsipi.**

TTAda xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlari O'zbekiston Respublikasi konunchiligiga so'zsiz rioya qiladilar hamda o'z xizmat va o'qish majburiyatlarini lavozim yo'riqnomalari, mehnat shartnomalari, ushbu Qoidalalar, TTAning Ichki mehnat tartib qoidalari hamda ta'limga oid boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq bajaradilar.

#### **6. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarning ustuvorligi printsipi.**

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari TTAning oliv qadriyati deb hisoblanadi. TTAda xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'ymaydilar hamda bunday buzilishlar ro'y bergen hollarda ularni tiklashga ko'maklashadilar.

#### **7. Vatanparvarlik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik printsipi.**

TTAda xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlari o'z o'qish va xizmat faoliyatlarini ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, Vatanga sadoqat, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik asosida jamiyatning TTAgaga bo'lgan talabi va ishonchini ifodalagan holda amalga oshiradilar. Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlar o'z o'qish va xizmat



burchlarini o'zaro hayrixohlik, o'z manfaatlari va mafkuraviy qarashlaridan qat'iy nazar lozim darajada bajaradilar.

### **8. Adolat, halollik va xolislik printspsi.**

TTAning xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlari o'z xizmat va o'qish faoliyatlarini amalga oshirishda adolatli, halol va xolis bo'lishlari hamda TTA, unga tegishli bo'lgan saytlar va ijtimoiy tarmoklarga murojaat qilgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu printsip talablari asosida munosabatda bo'lishlari shart.

### **9. Samaradorlik va tejamkorlik printsipi.**

TTA xodim, talaba va doktorantlari o'z faoliyati samaradorligini innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va boshqa yo'llar bilan doimiy ravishda oshirib boradilar.

TTA xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlari, o'z navbatida TTAning mulkiga, o'zining va boshqa shaxslarning vaqtiga mas'uliyat va ehtiyyotkorlik bilan yondashadilar.

## **3-bob. Korruptsiyaga qarshi kurashish**

### **10. Korruptsiyaning har qanday shakl va ko'rinishini qabul qilmaslik.**

TTA xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlari korruptsiyaning har qanday shakli va ko'rinishini qabul qilmaydilar va uning biror-bir tarzda namoyon bo'lishiga qarshi hamjixatlikda qonuniy choralarni ko'radilar.

Xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlar korruptsiyaga qarshi kurashishlari va uning profilaktikasiga faol ko'maklashishlari, shuningdek, TTAning Korruptsiyaga karshi kurashish dasturi talablarini so'zsiz bajarishlari, o'z faoliyatlarini oshkora va adolatli amalga oshirishlari, yuqori axloqiy qadriyatlar va printsiplarga sodiq qolgan holda qonun ustuvorligiga qat'iy rioya etishlari shart.

## **4-bob. Xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlar muomalasi va kiyinishiga oid talablar**

### **11. TTAda kiyinish va tashqi ko'rinishga oid qoidalar**

TTA xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlari dunyo miqyosida qabul qilingan xizmat protokoli qoidalariga muvofiq, jamiyatning boshqa vakillari uchun ibrat namunasini ko'rsatgan holda o'z o'qish va kasbiga mos bo'lgan jiddiy, ishehan va didli, ziyoli shaxs qiyofasini shakllantiradigan korporativ kiyinish uslubi talablariga amal qilib, zamonaviy kiyimda bo'lishlari lozim.

Tanaga bodiad uslubida turli suratlar chizdirish, tatuaj va pirsinglar tushirish odob-axloq qoidalariga zid hisoblanadi.

TTA xodimi, talabasi, klinik ordinatori va doktoranti bo'lgan xotin-qizlarga quyidagi holda muassasa hududiga kelish va unda yurish taqiqланади:

odamlar diqqatini tortadigan, hususan, tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak qorin va tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimlarda;



- bezak sifatida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga mos kelmaydigan yozuvarlar, turli reklama ma'lumotlari, davlat ramzları, zo'ravonlik, fahsh elementlarini targ'ib qiluvechi rasmlar va yozuvarlar aks etgan, rusum sifatida "yirtilgan", "titilgan" kiyimlarda;
- g'ayrioddiy soch turmamlari, ortiqcha bo'yangan, past saviyali "ommaviy madaniyat" belgilarini o'zida namoyish etgan holda;
- sport kiyimlari, kalta shim va sport poyabzallarida (jismoniy tarbiya darslari va darsdan so'ng talabalar turar joyi binosi, sport maydonchalari va ommaviy hasharlardan tashqari);
- turli din va konfessiya, submadaniyatlarga mansub bo'lган libosda (burka, hijob, niqob, apostolnik, klobuk, xaytsin va boshqlar);
- ortiqcha pardoz (makiyaj) qilishga, tirnoq ustirilgan holda;
- qulochchinlar, qulog va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga turli zirak yoki metall buyumlar taqqan holda;
- tananing ko'rinish turadigan qismida pirsing yoki tatuirovkada.
- TTA xodimi, talabasi, klinik ordinatori va doktoranti bo'lган xotin-qizlarning;
- ustki kiyimning turlari - bichimi ortiqcha bezaklardan holi, klassik shakldagi kostyum, yubka, bluzka va ko'yylakdan iborat bo'lishi;
- kostyum, yubka va ko'yylaklar va bluzkada bo'lishi;
- yubkaning uzunligi tizzadan past bo'lishi;
- sochlari orasta yig'ilgan, o'rilgan yoki turmaklangan, ortiqcha aksessuarlardan holi bo'lishi;
- aksessuarlari (sumka, ko'zoynak va bezaklar) ham korporativ uslubga mos holda tanlanishi, ortiqcha bezaklardan holi bo'lishi, zargarlik taqinehoqlari (zirak, uzuk, munchoq va boshqalar) ko'zga yaqqol tashlanmaydigan, nozik, nafis va sipo shaklda did bilan taqilishi lozim.

Talaba-qizlar TTAga:

- bluzkalarda, tizzani yopib turadigan yubka yoki odmi kostyum va poyabzalda kelishlari lozim, shuningdek, o'zlari bilan zaruriy o'quv vositalarini olib kelishlari shart.

TTA xodimi, talabasi, klinik ordinatori va doktoranti bo'lган erkalarga quyidagi holda muassasa hududiga kelish va unda yurish taqiqilanadi:

- bichimi tor, yaltiroq, badanga yopishib turadigan hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga mos kelmaydigan yozuvarlar, turli reklama ma'lumotlari, davlat ramzları, zo'ravonlik, fahsh elementlarini targ'ib qiluvchi rasmlar va yozuvarlar aks etgan, rusum sifatida "yirtilgan", "titilgan" kiyimlarda yurish:

- TTA hududida sport kiyimlari, kalta shim va sport poyafzallarida yurish (jismoniy tarbiya darslari va darsdan so'ng talabalar turar joyi binosi, sport maydonchalari va ommaviy hasharlardan tashqari);

- soch-soqollarni o'stirib yurish;



- bo'yin taqinchoqlari yoki turli metall buyumlarini taqish yoki osib yurish.

TTA xodimi, talabasi, klinik ordinatori va doktoranti bo'lgan erkaklar muassasa hududiga ko'yak, galstuk, bichimi klassik uslubdagi shim yoki odmi kastyum va poyabzalda kelishlari lozim.

Erkak talabalar o'zlar bilan zaruriy o'quv vositalarini olib kelishlari shart. Bunda talabaga mos ruchka, qalam, kitob, daftarlар solib yurish mumkin bo'lgan, rangi ustki kiyimiga yarashimli rangdagi sumka-portsellar tutishlari kerak.

Talabalar o'quv vosita va anjomlarini ro'zg'or, bozor-o'char uchun mo'ljallangan paket-xaltalarda olib yurmasliklari lozim.

Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarning oq xalati va shunga monand bosh kiyimi toza, tekis, tizzadan pastda turishi, yengi uzun (faslga qarab), klassik uslubda, chet el va turli hil firma yorliqlaridan holi bo'lishi kerak.

Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarning auditoriya va xizmat xonalarida ustki kiyim (plash, palto, kurtka kabilar)da yurishlari ta'qiqlanadi.

Xodimlar, talabalar, klinik ordinatorlar va doktorantlarning tashqi qiyofasi va kiyimlari ozoda, pokiza bo'lishi lozim.

## **12. Majlis va yig'inlarda ishtirok etish.**

TTA xodim talaba va doktorantlari turli tadbirlardagi (majlislar, tantanali yig'ilishlar, uchrashuvlar, bayramlar) ishtiroki jarayonida so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishlari, tadbir davomida tinchlik va osoyishtalikni saqlashlari shart bo'lib, raislik qiluvchi va moderatorning ruxsatisiz lo'qma tashlash va so'zga chiqish mumkin emas. Zarurat tug'ilganda nutqlar o'rtaida majlislar zalidan chiqib-kirish mumkin.

## **13. Binolarda yurish-turish qoidalariga amal qilish.**

Binolarga kirish va chiqish joylarida, shuningdek, yo'laklarda talabalar xodimlarni, erkaklar ayollarni, yoshlar esa kattalarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

TTA binolariga kirayotgan har bir shaxs binolarga kirib-chiqishni nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (xizmat yoki talabalik guvohnomasi, pasport va h-k.) ochiq holda ko'rsatishlari yoki maxsus berilgan ID-karta orqali turniketlardan yohud FINGERPRINT moslamalari orqali barmoq izlarini skaner tekshiruvidan o'tishlari shart.

Xodim, talaba va doktorantlar TTA hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari, shuningdek, yo'lak va hollarda mobil aloqa vositalari orqali baland ovozda gaplashmasliklari lozim.

Bir-birlariga duch kelganda salomlashishlari, bunda: talabalar xodimlarga, yoshlar kattalarga bиринчи bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi.

## **14. Xodim, talaba va doktorantlarning rasmiy muloqot me'yorlari.**

TTA xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlari tashkilot va muassasalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar bilan o'zaro munosabatga kirishganda quyidagi rasmiy muloqot me'yor va qoidalariga amal qilishlari kerak:

- o'z harakatlarini TTA mansaatlarini ko'zlab amalga oshirish, uning imidjini saqlash va oshirish, TTA, uning xodimlari, talabalari va doktorantlari nomi va



manfaatlariga ziyon yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmsaslik, shuningdek, ular bilan muloqot qilganda hamda ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarida o'zlarining namunali xulq-atvori bilan TTA haqida yuksak ijobiy taassurot uyg'otish;

- TTA, uning xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlari haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki noto'g'ri talqin qilingan, noto'g'ri talqin qilish uchun imkon beradigan ma'lumotlarni (ig'vo, g'iybat va bo'htonlar) tarqatmaslik, bunday ma'lumotlar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, jamoat oldida va ijtimoiy tarmoqlarda bu mavzuda chiqishlar qilmaslik;

- xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlarning roziligidiz ularning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

- xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlar haqida ularning kasbiy va o'quv faoliyatiga oid bo'limgan ma'lumotlarni aniqlashtirmaslik;

- xizmat axborotlarini taqdim etish qoidalariga amal qilish, so'ralgan axborotni yetarlilik (haddan tashqari qisqa shu bilan birga o'ta keragidan ortiq) va ishonchlilik (qayta tekshirishni talab qilmaydigan) talablariga muvosif holda taqdim etish;

- o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida olingen ma'lumotlardan maqsadga muvosif bo'limgan tarzda foydalanmaslik, shuningdek, ularni TTA rahbariyati ruxsatisiz tarqatmaslik;

- xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlarning ta'lim jarayonidagi faoliyati va kasbiy harakatlarni asossiz tanqid qilmaslik, jamoat oldida chiqishlar, shunindek, ommaviy axborot vositalari va turli hil ijtimoiy tarmoqlarda davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari va TTA faoliyati, uning xodimlari harakatlarni haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, asossiz va aniq dalillarga asoslanmagan holda muhokama qilmaslik va ular haqida baho berib, fikr-mulohazalar bildirmaslik.

## **15. Ish va o'qish vaqtiga rioya qilish.**

Xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlar dars mashg'ulotlari va ishga o'z vaqtida kelishlari, mehnat hamda o'qish intizomiga rioya qilishlari shart.

## **16. TTAda g'ayriaxloqiy va nojuya xatti- harakatlarni sodir etishga yo'l qo'yimasligi.**

Talaba, klinik ordinotor va doktorantning o'qishiga, xodimning esa TTAda mehnat faoliyatini yuritishiga to'sqinlik qiladigan quyidagi g'ayriaxloqiy va nojuya xatti-harakatlarni sodir etishi qat'yan taqiqlanadi:

- har qanday huquqbazarlik yoki jinoyat sodir etish, jumladan, tuhmat qilish, haqoratlash;

- giyoxvand moddalar, psixotrop vositalar va ularning analoglari, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish va tarqatish;

- tinchlik yoki osoyishtalikka qarshi tajovuz qilish, janjallahish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash;

- TTAga moddiy (моддий техника, китоблар, жихозлар, асбоб-ускуналар, лов-шарахлар va uning obrusiga salbiy ta'sir etuvchi ma'naviy zarar yetkazish);

- xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlarga jismoniy, ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazish;

- TTA atrof-muhitini har qanday ko'rinishda ifloslantirish;



- TTA binolari va hovlisida, shuningdek, TTA binolariga tutash hududda spirtli ichimliklar ichish va tamaki yohud boshqa turdag'i mahsulotlarni chekish hamda mast holda bo'lish, tashqi ko'rinishga va belgilangan etiket qoidalariga zid ravishda sochlari o'sgan, to'zg'igan, soqoli olinmagan va kiyinish talabiga rioya qilmagan holda kelish;

- TTAg'a tegishli kompyuterlarda muassasaga tegishli bo'limgan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy ma'lumotlar, behayo surat va filmlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi, ekstremistik, separatistik va fundamentalistik kayfiyatdagi har qanday materiallarni tayyorlash, ko'rish, saqlash, tarqatish va ularga da'vat etish;

- o'quv mashg'ulotlari, ish jarayonlari hamda xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarning osoyishtaligiga halaqit beradigan xatti-harakatlar sodir etish (radiouzatgich, televizor, multimedia va ovoz chiqaruvchi moslamalardan maqsadsiz foydalanish);

- umumbashariy va milliy qadriyatlarga hos bo'limgan yoki TTA va uning xodimlari nufuziga putur yetkazadigan materiallarni Internet tarmog'i va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoki ulardan turli nomuvofiq maqsadlarda foydalanish.

Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlar tomonidan TTAning obro'si, qadr-qimmati va nufuzini tushiradigan, ta'lim jarayonining ma'naviy buzilishiga olib keladigan aggressiya, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kansitadigan, zo'r lash va vaxshiylik, vandalizm, millatlararo nizo qo'zg'atadigan, diniy yo'nalishdagi, terrorizm, ekstremizm, va fundamentalizm, shuningdek, behayo va ishqiy saxnalarni namoyon qiladigan fotosuratlar, video va audioyozuvlardan foydalanish va ularning tarqalishiga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari va TTA faoliyati, uning xodimlari, talabalari, klinik ordinatorlari hamda va doktorantlari sha'ni va qadr qimmati hamda obrusiga salbiy ta'sir qiluvchi haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, asossiz va tekshirilgan dalillarga asoslanmagan turli xil ko'rinishdagi ma'lumot, fikr, mulohaza va munosabatlarni Internet, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, boshqa ommaviy axborot manbalarida, tarqatuvchilarda, tashuvchilarda paydo bo'lishi (oshkor etilishi) hamda shunday ma'lumotlarga ijobiy munosabat bildirish ("layk" bosish, repost qilish) mazkur talaba, klinik ordinator va doktorantning o'qishiga, xodimning esa TTAda mehnat faoliyatini yuritishiga to'sqinlik qiladigan g'ayri axloqiy va nojuya xatti-harakat hisoblanadi.

#### **5-bob. TTA rahbariyatining odob-axloqqa oid majburiyatlarini va kasbiyfaoliyatda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslikka oid tartiblar**

##### **17. Rahbarning majburiyatları**

Rahbariyat hamda tarkibiy bo'linma rahbarlari (keyingi o'rnlarda - Rahbar) o'ziga bo'ysunuvchi hodimlarga nisbatan yuqori professionallik, holislik, soflik va adolatda o'snak bo'lishi, TTA yohud uning tarkibiy bo'linmasida ijobiy, ma'naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko'maklashishi lozim. Rahbar bo'ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiquvchi topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek, qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.



Rahbar o'z faoliyatida:

- kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish va mehnat munosabatlarda kamsitish holatlariga yo'l qo'ymasligi;
- guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizmga, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymasligi;
- qo'pollik qilmasligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kansitsmasligi, ularga psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatmasligi;
- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi;
- korruptsiyaning oldini olish choralarini ko'rishi;
- xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog'i, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanishlari, hordik chiqarishlari, dam oishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha sharoitlarni ichki imkoniyatlardan kelib chiqib yaratib berishi;
- xodimlar faoliyatini samarali tashkil etib, o'ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag'larga ehtiyyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishi shart.

Rahbar qo'l ostidagi xodimlarning mehnat intizomiga rioya qilishlarini talab qilishi va uni ta'minlashga mas'uldir.

#### **6-bob. Xodim, talaba, klinik ordinatorlari va doktorantlarning o'zaro munosabatlariiga oid talablar**

##### **18. Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarning o'zaro munosabatlari**

Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarning o'zaro munosabatlari milliy qadriyat va an'analar, yagona jamoaviy muhit, o'zaro hurmat va e'tibor, do'stlik, hamjixatlik, halollik va adolat tamoyillariga asoslanishi lozim.

TTA xodimi, talabasi, klinik ordinatori va doktoranti bo'lган erkaklar TTA xodimi, talabasi, klinik ordinatori va doktoranti bo'lган xotin-qizlarga nisbatan hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lislari shart.

Xodim, talaba, klinik ordinatorlari va doktorantlarning o'zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik, shaxsiyatni kamsitish, o'zganing intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik, behayo so'zlar ishlatish, mushtlashish kat'ian man etiladi.

Pedagog xodimlar tomonidan talaba va klinik ordinatorlariga nisbatan o'quv va tarbiya jarayonidagi yuqori talabchanlik ularning shaxsini hurmat qilish bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

##### **19. Pedagog xodim va talabalarining auditoriyadagi va undan tashqaridagi o'zaro munosabatlari**

Pedagog xodim auditoriyaga kirganida, barcha talabalar o'rinalidan turib xurmatlarini bildirgan holda kutib oishlari, so'ngra pedagog xodim salomlashib, ottirishga ruxsat bergach, o'z joylarini egallashlari kerak. Pedagog xodim darsini



tugatib, auditoriyadan chiqib ketayotganda ham talabalar o'rinalidan turib, kuzatib qo'yishlari lozim.

Pedagog xodimlar o'quv jarayoni va boshqa holatlarda ham talabalar, klinik ordinatorlar va doktorantlarning shaxsini hurmat qilishi, ular bilan munosabatda ochiqlik va hayrixohlik tamoyillariga amal qilish, talabalar yoki klinik ordinatorlarga ta'lim berish jarayonida o'z vazifalarini beg'araz amalga oshirishi, talabaga munosabatda ularni kamshitish, qo'pol so'z ishlatis, o'zini yuqori tutish va tanish-bilishchilik kabi yondashuv shakllarini mutlaqo qo'llamaslik, ularga nisbatan doimo hakkoni yunusabatda va xolis bo'lishlari shart.

Pedagog xodimlar talabalar yoki klinik ordinatorlarga ularni qiziqtirgan fan yoki o'quv kursiga oid masalalar yuzasidan dars jarayonidan tashqari vaktlarda bergan savollariga ham axloq meyorlariga amal qilgan holda javob qaytarishlari va ularni fanga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshirish choralarini ko'rishlari zarur.

## **20. Akademik ta'qib va tazyiqqa yo'l qo'yilmasligi.**

TTA hayotida rahbariyat yoki pedagog xodim tomonidan talabalar, klinik ordinatorlar va doktorantlarni ularning roziligidan muayyan ishlarga jalb etganlik, haq to'lomasdan ularning mehnat kuchidan foydalanish (TTA va unga biriktirilgan boshqa hududda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan xavfsizlik standartlariga kat'iy rioya kilingan holda ixtiyoriy shanbalik va boshqa turdag'i tadbirlar tashkil etilgan hollar bundan mustasno) maqsadida ularga murojaat etilganida, talabalar tomonidan bunday so'rovga rad javobining berilishi pedagog xodim tomonidan kelgusida ularga dars mashg'ulotida past baho qo'yish yoki boshqa turdag'i tazyiq va ta'qib (academic harassment) qilish bilan bog'liq munosabat ko'rsatilishiga imkon bermaydi va bunday ta'qib qattiq qoralanadi.

## **21. Uyali aloqa vositalaridan foydalanish.**

TTA hududiga kirib kelishda har bir ta'lim oluvchi, xodim, keluvchi va boshqa shaxslar o'z telefonini abonentining chaqiruv ovozini to'liq o'chirib qo'yishi (telefonni "ovozsiz" rejimiga o'tkazishi) shart.

Xodim, keluvchi va boshqa shaxslar TTA hududida o'z telefonini abonentini vibrattniya rejimiga o'tkazishlari mumkin.

TTAda o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari va tadbirlar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirlari va shu kabilalar) boshlanishidan oldin ta'lim oluvchilar:

- telefonini o'chirib qo'yishi;
- telefonini portfeli, sumkasi va shu kabilarga solib qo'yishi shart.

Ta'lim oluvchilarga quyidagilar qat'ian taqiqilanadi:

- a) telefonini bo'yning osib olish;
  - b) telefon akkumulyatorini zaryadlash uchun TTA elektr tarmoqlariga ulash;
  - c) telefon yordamida:
- atrofdagilarga zo'ravonlik, shafqatsizlik, pornografiyani targ'ib qiluvchi video va suratlarni namoyish qilish;

TTAning nufuziga, shu jumladan zo'ravonlik va vandalizm holatlarini suratga olish va keyinchalik ularni atrofdagilarga namoyish etish yo'li bilan zarar yetkazish:

- e) o'quv mashg'ulotlari vaqtida:



- telefon orqali so'zlashish hamda SMS (MMS) va boshqa turdag'i xabarlarni jo'natish;
- telefonni stol ustiga qo'yish;
- musiqa, shu jumladan naushniklar orqali tinglash;
- telefonda o'yinlar bilan shug'ullanish, tasvir (matn, rasm, videoyoziuv va fotosuratlar) ko'rish, diktosfon, kalendar', bloknot, yon daftarcha kabilar sisatida foydalanish;
- suratga olish va video tasvirga tushirish (mashg'ulotni o'tuvchi pedagog ruxsat berilgan hollar bundan mustasno);
- telefon (GPRS, Bluetooth, Internet va shu kabilar) orqali boshqa xizmatlardan foydalanish.

TTAda ta'lim oluvchilarga mashg'ulotlar va tadbirlar oralig'ida faqat asosli va kechiktirib bo'lmaydigan zarur holatlarda ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchilar), yaqin qarindoshlari, ta'lim muassasalarining rahbarlari yoki xodimlari bilan zudlik bilan bog'lanish maqsadida telefonlardan foydalanishga (qo'ng'iroq qilishga, SMS, MMS, GPRS jo'natishga, Bluetooth, Internet va shu kabilar xizmatidan foydalanishga) ruxsat etiladi.

Mashg'ulotlar va turli tadbirlar oralig'ida telefon orqali so'zlashish uchun xonadan yo'lakka yoki foega chiqish, past ovozda va qisqa muloqot qilish zarur.

Favqulodda vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda TTAda telefonidan foydalanish cheklanmaydi.

TTAning professor-o'qituvchilari va boshqa xodimlari:

- o'quv mashg'ulotlari vaqtida telefonidan foydalanish huquqiga ega emas;
- darsdan tashqari vaqtida ta'lim oluvchilar ishtirokida telefonidan foydalanishni imkoniboricha cheklashlari shart.

Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun qat'iyan taqiqilanadi. Uyali aloqa vositalaridan foydalanishga zarur va uzrli holatlarda pedagog xodimning ruxsat bilangina ruxsat etilishi mumkin.

## **22. Dars mashg'ulotida ishtirok etish.**

Talabalar, klinik ordinatorlar va doktorantlarning darsga kech qolib kelishlariga yo'l qo'yilmaydi. Lekin uzrli sababga ko'ra darsga kech qolgan talaba uzr so'rab, pedagog xodimning ijozati bilan auditoriyaga kirib o'z joyini egallashi mumkin.

Pedagog xodim dars mashg'ulotlariga o'zining nojuya harakatlari bilan halaqit berayotgan talabani yuzaga kelgan vaziyat haqida fakultet decanini (u o'z o'rnida bo'limganda dekan o'rinosari yoki guruh tuytorini) xabardor qilgan holda darsdan chetlatishi mumkin.

## **23. Dars mashg'ulotidan tashqari vaqtida muloqot qilish.**

Talaba, klinik ordinator va doktorant uchun pedagog xodim bilan dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtida muloqot qilish zarurati bo'lsa, u holda muloqot:

- maslahat soatlari, mustaqil ish yoki uzaro kelishuv bo'yicha belgilangan vaqtida amalga oshirilishi mumkin;
- talaba, klinik ordinator va doktorant o'zi muloqot qilmoqchi bo'lgan pedagog hodimning lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasini bilishi maqsadga muvofiq.



Asoslangan jiddiy sabablar (qupollik, tamagirlik, dars sifatining pastligi, pedagog xodimning aybi bilan mashg'ulotlar o'tkazilishidagi muntazam uzilish hollarini isbotlovchi dalillar va boshqalar) hamda guruh (kurs)ning yakdil fikri mavjud bo'lgan holatlarda talabalar pedagog xodimni almashtirish haqida iltimos bilan fakultet dekaniga murojaat qilishlari mumkin.

#### **24. Subordinatsiya**

Rahbar xodimlarga xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlar tomonidan biron-bir masala yuzasidan vujudga kelgan holatlar bo'yicha murojaat qilinishi muayyan tartib (subordinatsiya tamoyili), ya'ni munosabat bildirishdagi rahbariyat bo'g'inlariga bosqichma-bosqich chiqish asosida tashkil etiladi. TTA rektoriga talabalarning to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish holatlari bundan mustasno.

#### **25. Tashabbus va faollik**

Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarning oliy ta'lim muassasasida ma'nnaviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion g'oyalardan samarali foydalanish, turli hil mansaftli tadbirlar uyushtirish bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

### **7-bob. Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlarning odob-axloqqa oid majburiyatları**

#### **26. Odob-axloqqa oid majburiyatlar.**

TTAg'a o'qishga, ishga kirayotgan shaxslar mazkur Qoidalar bilan yozima ravishda (imzo chektirib) tanishtiriladilar.

Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlar:

- qonun hujjatlari va mazkur Qoidalar talablariga rioya etishga;
- doimo yuksaklikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oljanob fazilatlarni chuqur anglashga;
- odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va kadriyatlarimizni hurmat qilishga:
  - o'z ustilarida doimiy ravishda ishlash va qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini muntazam ravishda o'rganib borishga;
  - o'z vazifalarini vijdonan, professional darajada amalga oshirishga; oliy ta'lim muassasasi obro'se'ibori va nufuziga dog' tushiradigan har qanday harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyishga;
  - intellektual mulk huquqlari va ilmiy odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish;
  - TTA to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro'siga ziyon yetkazish maqsadida foydalanmaslikka;
  - TTA mulkiga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish (ko'char va ko'chmas mulk, o'simlik va xayvonot dunyosiga va b.), shu jumladan, xizmat vazifasini bajarish uchun berilgan moddiy texnika vositalaridan to'g'ri va tejamkorona foydalanishga;
  - TTA elektr energiyasi va suvini tejamkorona ishlatishtga; biron-bir nohush voqe'a yoki xodisa ro'y bersa, u haqda zudlik bilan TTA rahbariyatiga habar berishga;



- belgilangan cheklovlari va ta'qiqlarga rioya qilish, o'z vazifalarini og'ishmay bajarishga, xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilmaslikka, hech bir shaxs haqida jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va lavozimi haqida hamda boshqa hususiyatlaridan qat'i nazar noto'g'ri fikr yuritmaslikka va uni kamxitmaslikka;

- xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantlar, shuningdek, boshqa shaxslar haqida turli ig'vo, fitna, g'iybat va bo'xtonlar uyushtirmaslikka va tarqatmaslikka;

- TTA obrusi yoki nufuziga putur yetkazadigan nizoli vaziyatlarga yo'l qo'ymaslikka;

- xodim, talaba, klinik ordinotor va doktorantning mehnat va o'quv jarayonidagi sa'y- harakatlariga kasddan ziyon yetkazmaslikka;

- davlat organlari va mansabdar shaxslarning, shuningdek, TTA rahbariyatining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida va sifatli bajarishga;

- shaxsiy foydasi hamda o'zgalar mansaatin ko'zlab o'z mavqeini suiste'mol qilmaslikka;

- haqiqatni gapirishga, rahbarlar va boshqa xodimlarni chalg'itmaslikka;

- mutasaddi xodimlarning ruxsatsiz turli reklama vositalarini o'rnatmaslikka;

- kasbiy faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan, ularning oshkor etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beriladigan axborotning saqlanishi va maxfiyligini ta'minlash yuzasidan bareha choralarini ko'rishga;

- sog'gom turmush tarzini yuritish va atrofdagilarning sog'lig'ini saqlashga g'amxo'rlik qilish, estetik va ekologik madaniyatning oshishiga ko'maklashishga;

- tanqidiy mulohazalarni bildirishga va obektiv qaror qabul qilishga, o'z xato va kamchiliklarini anglash va bartaraf etishga;

- moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligi turli yo'llar bilan ataylab maqtanmaslikka;

- Axborot resurs markazi xodimlari bilan xushmuomala bo'lishga, kitoblar va jixozlarga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga, u yerda uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish yoki ovozsiz rejimga qo'yishga, baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslikka, oziq-ovqat iste'mol qilmaslik, qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslikka, kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilishga;

- sport majmuasiga sport kiyimi va poyabzalida kirishga;

- sport inventarlariga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga;

- mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarinin belgilangan joylarga qayta topshirishga;

- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilishga;

- TTA auditoriyalari, binolari va binolarga tutashgan hududda tozalikni saqlashga;

- hududni ifloslantirmaslik, chiqindilarni joylarda qo'yilgan maxsus qutilarga tashlashga;

- shaxsiy avtomobilni ta'qiqlangan joyda qoldirmaslik, yo'l harakati qoidalarini buzmaslik va mensimaslikka (beparvo bo'lish), shuningdek, transport vositalaridan foydalananishda xavf-xatar yaratmaslikka;



- mutasaddilarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini TTA hududida osmaslik;
- maishiy tinchlikka rioya qilish;
- pora berish, korrupsiyaga vositachilik qilish, fribgarlik yo'li bilan insonlarga moddiy va ma'naviy zarar yetkazmaslikka;
- narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlari iste'mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish, bunda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuqoridagi holatlar haqida tegishli tashkilotlarga o'z vaqtida xabar bermaslik javobgarlikka sabab bo'lishi alohida qayd etiladi;
- ish (o'qish)dan tashqari vaqtida umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka majbur.

## **27. Odob-axloqqa oid qo'shimcha talablar**

### **a) talaba, klinik ordinator va doktorantlar quyidagilarga majbur:**

- nutq madaniyatini doimiy takomillashtirib borishga;
- talabalarning o'z-o'zini boshqarish tizimini faol qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish va jamoaviy madaniyatni o'stirishga;
- pedagog xodim bilan boshqa talaba yoki klinik ordinatorlarning bahosini muhokama qilmaslikka;
- yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir tartib-qoidani bajarish vaqtida chetdan yordam olmaslik, o'zgalarga yordam ko'rsatmaslikka;
- boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o'z nomidan topshirmaslikka;
- mashg'ulotlarni sababsiz o'tkazib yubormaslikka va darslarga sababsiz kechikib kelmaslikka;
- o'quv mashg'ulotlari vaqtida TTA hududida behuda yurmaslikka;
- dars mashg'ulotlari o'tilayotgan vaqtida fakultet dekanlari, magistratura bo'limi boshlig'i yoki ilmiy rahbarning ruxsatisiz TTA hududidan ketib qolmaslikka;
- ko'chirmachilikka yo'l qo'ymaslikka, o'zgalarning ilmiy ishlanmalarini o'zlashtirmaslikka va yolg'on ma'lumotlarga asoslanmaslikka;
- intellektual mulk huquqlari va ilmiy odob-axloq qoidalariга rioya qilishga;
- xodim, talaba, klinik ordinator yoki doktorant bilan nizoli vaziyat yuzaga kelgandao'rз hissiyotlarini jilovlashga va mazkur vaziyatni ko'rib echiqish bo'yicha tegishli bo'linma va xodimlarga (murabbiy(tutor)), dekan, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Ma'naviyat va ma'rifat markazi) murojaat qilishga;
- o'quv jarayonida faol, e'tiborli bo'lishga va pedagog xodimning ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilishga;
- dars vaqtida gaplashmaslik hamda dars mashg'ulotlariga taaluqli bo'lmagan ishlar bilan shug'ullanmaslikka;
- jixozlarga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, stol va stillarga yozmaslikka;
- qog'oz, saqich va boshqa keraksiz narsalarni auditoriyada qoldirib ketmaslikka;
- mashg'ulotlar davomida ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslikka, shuningdek, shaxsiy kompyuter va boshqa kommunikatsiya vositalaridan faqat pedagog xodim ruxsati bilan foydalanishga;
- pedagog xodimga mashg'ulotlar vaqtida savol yoki iltimos bilan qo'l ko'targan holda va ruxsat berilganidan so'ng murojaat qilishga;



- umumiy ovqatlanish joylarida taomlarga buyurtma berish va olishda navbat tartibiga hamda belgilangan qoidalarga rioya qilishga;
- buxgalteriya va boshqa bo'limlardan stipendiya va turli hujjatlarni olishda navbat tartibiga rioya qilishga;
- t'abalalar turar joyi ichki tartib qoidasiga qat'iy rioya qilishga;
- jamoat havfsizlik manfaatlardan kelib chiqib, imkon darajasida TTAg'a jamoat transportida kelishga;

**b) xodimlar quyidagilarga majbur:**

- o'z xizmat joyidagi tartib intizomga va TTAg ichki mehnat tartib qoidalariiga rioya qilishga:
  - ta'tildan oldin yoki mexnat shartnomasi bekor qilinganda o'z xizmat joyini talabga javob beradigan holatda qoldirishga, o'z zimmasidagi orgtexnika vositalari va boshqa materiallarni, o'ziga topshirilgan, lekin hali yakunlanmagan vazifalarni boshqa shaxsga topshirmaslikka;
  - telefon orqali muloqot qilishda muomala madaniyati va axborot taqdim etish qoidasiga rioya qilishga (jumladan, suxbatni eng avval rasmiy tarzda salomlashishdan boshlab, so'ng o'z xizmat muassasasi, lavozimi hamda familiyasi, ismi, sharifini aytib, maqsadga o'tish lozim, taqdim etilayotgan axborot maksimal qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi kerak, so'ralayotgan ma'lumot suxbat jarayonida izlanishi tufayli telefon tarmog'ini band qilishga yo'l qo'yilmaydi, zarurat bo'lsa, qayta qo'ng'iroqni amalga oshirish mumkin);
  - yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga;
  - yoshlar orasida sog'lom tur mush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli taxdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan ekstremistik ta'sirlardan, "ommaviy madaniyat" xurujlaridan ogoh etib borishga;
  - ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda va ma'rifiy ishlarning samarali shakl hamda uslublarini ishlab chiqishga ko'maklashishga;
  - o'z xizmat vazifalarini vijdonan bajarishga shubxa tug'diradigan xattiharakatlarni qilmaslikka, talabalar bilan o'z hamkasblarini kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muxokama qilmaslikka;
  - ko'chirmachilikka yo'l qo'ymaslikka, o'z galarning ilmiy ishlanmalarini o'zlashtirmaslikka va yolg'on ma'lumotlarga asoslanmaslikka;
  - intellektual mulk huquqlari va ilmiy odob-axloq qoidalariiga rioya qilishga;
  - talabalarni asossiz o'quv mashg'ulotlaridan chiqarib yubormaslikka, shuningdek, talabaga TTAg talabalar safidan chetlashtirish (kursdan kursga qoldirish) yoki talabalarning majburan o'qishdan voz kechishga undash bilan qo'rqitmaslikka, uning asossiz talabalar safidan chetlashtirishga (kursdan kursga qoldirilishiga) olib kelmaslik;
  - akademik guruhda (kursda) talabalar xulqining umumiy madaniy holati haqida fakultet dekanlariga kerak bo'lgan hollarda ta'sir choralarini ko'rish lozimligi yuzasidan yozma ma'lumot taqdim etish kabi talablarni bajaradilar.



## **8-bob. Rag‘batlantirish va chora ko‘rish tartibi.**

### **28. Xodim va talabalarni rag‘batlantirish.**

O‘quv yili davomida mazkur Odob-axloq qoidalarga to‘la rioya qilgan, TTA da yuksak ma‘naviy-axloqiy muxitning yanada qaror topishi va mustahkamlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan xodim va talaba rahbariyat, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va boshqa tarkibiy bo‘linma rahbarlari tavsiyasiga binoan belgilangan tartibda moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirilishlari mumkin.

### **29. Qoidalarga ryoja qilishning attestatsiya va boshqa jarayonlar uchun ahamiyati.**

Xodimlar tomonidan mazkur qoidalarga ryoja etilishi attestatsiyalar o‘tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash (kareraviy o‘sish) uchun kadrlar zahirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

### **30. Qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik.**

TTA xodim, talaba, klinik ordinator va doktoranti mazkur Odob-axloq qoidalarni buzganida, bunday holatlar Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda TTA Ichki tartib qoidalarning “Intizomiy ta’sir choralar” bo‘limida keltirilgan holatlar bo‘yicha choralar ko‘riladi.

### **31. Qoidalar va ichki tartib qoidalarning o‘zaro munosabati.**

Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlar mazkur Qoidalar qoidalarni buzganida, ularga nisbatan Akademiya Ichki tartib qoidalarning VII bobida (Mehnat va o‘qish intizomini buzganlik uchun javobgarlik) qayd etilgan choralar qo‘llaniladi.

## **9-bob. Odob- axloq komissiyasi faoliyatini tashkil etish.**

### **32. Odob- axloq komissiyasi.**

Mazkur Qoidalar normalarining xodim, talaba va doktorantlar tomonidan buzilishiha oid masalalar Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, Odob-axloq komissiyasi TTA rektorining ko‘rsatmasi bo‘yicha:

- xizmat tekshiruvi natijalariga ko‘ra;
- o‘z tashabbusi biłan;

TTA xodim, talaba va doktorantlaridan, shuningdek, TTA ga aloqa kanallari orqali kelib tushgan axborot vositasida ham ushbu turdag‘i masalalarni ko‘rib chiqadi.

Odob-axloq komissiyasi TTAning kamida 5 (besh) nafar professor-o‘qituvchilaridan iborat tarkibda tuziladi. Odob-axloq komissiyasining maqsadi, vazifalari, funktsiyalari, huquqlari va uning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq boshqa masalalar TTA rektori tomonidan tasdiqlangan Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizomda belgilanadi.

### **33. Odob-axloq komissiyasi xulosasi.**

Odob-axloq qoidalarning buzilishi holatlarini odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha intizomiy yoki boshqa tarzdagi qoida buzishlarning



mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xulosa chiqariladi. Ayni vaqtda TTA rektoriga ko'rib chiqishi uchun qoidabuzar xodim, talaba, klinik ordinatorlari va doktorantni javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritiladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining hususiyatini hisobga olgan holda Odob-axloq komissiyasi xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantga nisbatan Odob-axloq qoidalaring buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Odob-axloq qoidalariга rioya etmagan xodim, talaba, klinik ordinatorlari va doktorantni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha buyruq loyihasi fakultet dekanlari va magistratura bo'limi (talabalarga nisbatan), kadrlar bo'limi (xodimlar va doktorantlarga nisbatan) tomonidan tayyorlanadi.

Xodim, talaba, klinik ordinator va doktorantlar o'zlari yo'l qo'ygan qoida buzilishining ko'rib chiqish jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek, TTA qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

#### **34. Jamoatchilik nazorati.**

Xodim, talaba yoki doktorantning xulq-atvori ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida, mazkur Qoidalarga rioya etmaganlik holatlari Kasaba uyushmasi qo'mitasi, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashlari va O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotida ham muhokama qilinishi va ulariинг qaroriga binoan xodim, talaba, klinik ordinator yoki doktorantning hulq-atvori to'g'risida u yashab turgan mahalla fuqarolar yig'iniga ma'lumot tariqasida yozma xabar yuborish amaliyoti ham joriy etilishi mumkin.

#### **10-bob. Yakuniy qoida**

#### **35. Qoidalarning kuchga kirishi hamda unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.**

Mazkur qoidalari TTA Kengashi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi va unga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish TTA Kengashi qaroriga binoan amalga oshiriladi.

